

R.A. Djuraeva, L.M. Tashpulatova

## Jahon oziq-ovqat tizimidagi global tendensiyalarga ta'sir etuvchi omillar va tahdidlar

*Статья посвящена рассмотрению и анализу факторов, влияющих на основных тенденции в развитии глобальной продовольственной системы. В частности, систематизированы демографические, экономические, экологические и социальные факторы, являющиеся драйверами современного продовольственного сектора. Кроме того, выявлены возможные риски и угрозы в сфере обеспечения продуктами питания людей на мировом уровне, а также проблемы обеспечения устойчивости мирового продовольственного рынка в перспективе.*

\* \* \*

*The article is devoted to consideration and analysis of the factors influencing the main trends in the development of the global food system. In particular, demographic, economic, environmental and social factors that are drivers of the modern food sector are systematized. In addition, possible risks and threats in the sphere of providing people with food at the world level, as well as problems of ensuring the stability of the world food market were identified.*

**Kalit soʻzlar:** oziq-ovqat xavfsizligi, barqaror rivojlanish, ovqatlanish ratsioni, oziq-ovqat narxlari indeksi, yer va suv resurslari, oziq-ovqat suvereniteti.

\* \* \*

**Ключевые слова:** продовольственная безопасность, устойчивое развитие, рацион питания, индекс цен на продовольствие, земельные и водные ресурсы, продовольственный суверенитет.

\* \* \*

**Key words:** food security, sustainable development, food ration, food price index, land and water resources, food sovereignty.

---

Djuraeva R.A., Tashpulatova L.M., JIDU, "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası.

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi dunyo davlatlari oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Chunki yer yuzi aholisining tobora o'sib borayotgani tufayli iste'mol tovarlari, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab ham kun sayin oshib bormoqda. Joriy vaziyat va bashoratlarni hisobga olgan holda, 2015 yil 25-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 70-sessiyasida Mingyillik rivojlanish maqsadlari o'rnini bosadigan va kelgusi o'n besh yil ichida kun tartibini belgilaydigan 17 Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) qabul qilindi. Ikkinchi maqsad sifatida ochlikni bartaraf etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ovqatlanishni yaxshilash va qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini rag'batlantirish ko'rsatilgan.

O'zbekiston jahon oziq-ovqat dasturiga o'z hissasini qo'shish va kengaytirish uchun katta imkoniyatlarga ega. O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganday, «Qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi, ya'ni harakatga keltiruvchi kuchi bo'lgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi»<sup>1</sup>.

Mustaqillik yillari mobaynida aholi soni 11 milliondan ziyod o'sganiga qaramay aholi jon boshiga go'sht iste'moli 1,4 barobar, sut va sut mahsulotlari 1,5 karra, kartoshka 1,9 marta, sabzavot 2,6 barobardan ziyod, meva 6,3 marta ko'paygan holda, yurtimizdan 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlar dunyoning 100 ga yaqin davlatiga eksport qilingan.

Shuni qayd qilish lozimki, O'zbekiston o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdan tashqari, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali xorijiy davlatlarning oziq-ovqat ta'minotiga ham munosib hissa qo'shayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e'tirof etilmoqda. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining 2015 yil iyun oyida Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tgan 39-konferensiyasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgan davlatlarni taqdirlash marosimida O'zbekiston 14 ta davlat qatorida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda erishgan yutuqlari uchun maxsus mukofot bilan taqdirlandi.

2017–2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga ko'ra, qishloq

---

<sup>1</sup> Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. 15 Декабрь 2016.

xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishda tarkibiy o'zgar-tirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish ko'zda tutilgan<sup>1</sup>.

Shu borada agrosanoat kompleksida olib borayotgan islohotlar, xususan, 2017-yil 10-oktabrda qabul qilingan «Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari o'z vaqtida va sifatli bajari-lishiga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda ekin maydon-laridan oqilona foydalanilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur qarorda belgilangan chora tadbirlarning amalga oshirishi mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosiy muammolarni hal qilishga imkon beradi.

Xalqaro tashkilotlarnig ilmiy adabiyotlarini va tahliliy hisobotlarini o'rganish hozirgi kunda jahon miqyosida oziq-ovqat sohasidagi tenden-siyalariga hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash darajasiga ta'sir etadigan eng muhim harakatlantiruvchi omillarni aniqlash imkonini beradi (1-jadval).

*1-jadval*

**Global miqyosida oziq-ovqat xavfsizlik darajasiga ta'sir etuvchi asosiy harakatlantiruvchi omillar**

1. Jahon aholisining o'sishi.	2. Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining tez o'zgaruvchanligi.
3. Milliy va xalqaro darajadagi oziq-ovqat tizimining kelajakdagi boshqaruvi.	4. Aholi jon boshiga talab hajmi va tarkibining o'zgarishi.
5. Iqlim o'zgarishi.	6. Asosiy resurslar uchun raqobat kurashi.

Aniqlangan omillarni batafsil tahlil qilib, ko'rib chiqamiz.


**Jahon aholisining o'sishi.** Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, 2050 yilga borib, dunyo aholisi deyarli 10 milliard kishini tashkil qiladi (1-

<sup>1</sup> 2017–2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Президенти 49/47 сонли фармони, 7 февраль 2017 йил.

rasm). Shuningdek, oldingi yillarda kuzatilgan ocharchilik miqyosining kamayish tendensiyasi bugungi kunda o'zgarib bormoqda, ya'ni, och odamlarning soni yana o'sib boshladi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda sayyoramizda surunkali ochin-to'qin yashaydigan aholining soni 815 mln. kishigacha oshdi, 2015 yilda bu ko'rsatkich 777 mln. kishini tashkil etgan, 2000 yilda esa – 900 mln.kishi.

To'yib ovqatlanmaslik tarqalishi haqida gapiradigan bo'lsak, 2016 yilda bu ko'rsatkich 11 foizga yetdi, 2015 yilda bu ko'rsatkich 10,6% tashkil etgan, 2000 yilda esa – 14,7%.

Bugungi kunda dunyodagi 815 millionga yaqin odam och qolmoqda va 2050 yilga borib, bu raqam 2 milliardga etadi. Shuningdek, hozirgi paytda dunyodagi har o'ninchi kishi (815 mln.) ovqatlanmaslikdan aziyat chekmoqda. Jahondagi och odamlarning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi, bu yerda aholining 12,9 foizi ochin-to'qin kun kechiradi. Och odamlarning uchdan ikki qismi Osiyoga to'g'ri kelib (taxminan 281 million kishi), Janubiy Osiyoda so'nggi yillarda ochlar ulushi biroz kamaysa-da, G'arbiy Osiyoda bu ko'rsarkichning oshishi kuzatilmoqda. Afrikaning Saxara janubidagi hududida ovqatga to'yimaslik darajasi qariyb 23 foizni tashkil qiladi.




1-rasm. Dunyo aholisining hududlar bo'yicha o'sish dinamikasi.

Achinarli statistika shuni ko'rsatadiki, har yili besh yoshgacha bo'lgan deyarli 3,1 mln. bolalar yomon ovqatlanishdan o'ladi - o'lik bolalarning yarmi (45%). Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich maktab

yoshidagi 66 million bola och holda darslarga qatnaydi, Afrikaning o'zida bu ko'rsatkich 23 mln. tashkil qiladi<sup>1</sup>.

Muammo shundaki, ko'pgina ocharchilikka duch kelgan mamlakatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan u etarli darajada ta'minlangan bo'lib, hatto ularni eksport qilsa ham, aholisining oziq-ovqatlarni sotib olish uchun daromadi etarli emasdir. Xavfli tendensiya shundaki, ochlik dunyodagi ko'plab mamlakatlar rivojlanishining sekinlashuviga sabab bo'lmoqda, chunki ushbu mamlakatlarda nosog'lom va savodsiz avlod voyaga yetmoqda.

**Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining tez o'zgaruvchanligi.** Bu borada oziq-ovqat narxlarining o'zgarish dinamikasini tahlil qilib o'tish zarur. Xususan, 2- rasmda 1961-2017 yillarda oziq-ovqat mahsulotlari narxining real va nominal o'zgarish darajasi indeksi ko'rsatilgan.



\* Real narxlar indeksi – bu nominal narxlar indeksi sanoat tovarlarning birlik narx indeksini deflatsiya qilish orqali aniqlanadi

## 2-rasm. Oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarish indeksi (1961-2016 yillar uchun nominal va real qiymatda)<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2017. Повышение устойчивости к внешним воздействиям в целях обеспечения мира и продовольственной безопасности.- Рим, ФАО, 2017 г.

<sup>2</sup> Díaz-Bonilla. 2016. «The fractured conversation about trade and food security». 2015–2016. Rome, FAO. p 16

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2007-2008 yillarda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarning keskin o'zgarishi kuzatilgan. Bu ayni shu davrda yuz bergan jahon oziq-ovqat inqirozining natijasida yuzaga kelgan.

2017 yil sentabr oyida FAO tomonidan hisoblanadigan oziq-ovqat narxlari indeksining (ICPF) o'rtacha qiymati 178,4 punktni tashkil etdi, bu avgustga nisbatan 1,4 punktga (0,8%) va 2016 yil sentabrga nisbatan 7,4 punktga (4,3%) yuqori. ICPF qiymatining oldingi oyga nisbatan o'sishi o'simlik moylari va sut mahsulotlari narxlarining o'sishi bilan bog'liq<sup>1</sup>.

Oziq-ovqat mahsulotlarining turiga qarab narx indekslarini tahlil qiladigan bo'lsak, FAO ning ma'lumotlariga ko'ra, don narxi indeksining o'rtacha qiymati 2017 yilning sentabr oyida 152,2 punktni tashkil etdi, bu avgust oyidagi darajadan 1,6 punktga (1,0%) pastdir. Ushbu qiymatning pasayishi ikki oy davomida kuzatilayotganiga qaramasdan, o'tgan yilning shu davriga qaraganda 8 % ko'p (3-rasm).


2017 yilning sentabr oyida o'simlik yog'lari uchun FAO narx indeksining o'rtacha qiymati avgust oyidagi 164,4 punktga nisbatan 171,9 punktni tashkil qildi: bu ko'rsatkichning oshishi ikki oyidan beri davom etmoqda va uning o'sishi, asosan, Janubiy-Sharqiy Osiyoda hosil past bo'lgani tufayli palma yog'i narxining ko'tarilishi bilan bog'liqdir.

Sentabr oyida FAO shakar narxi indeksining o'rtacha qiymati 204,2 punktni tashkil etdi, bu avgust darajasiga nisbatan deyarli o'zgarmadi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101 ball (33%) past. Bu yil boshidan beri shakar kotirovkalarini tez pasayishi dunyo bozorlarida talabning pasayishi bilan birga taklifning haddan tashqari ko'payishini aks ettiradi.

FAO sut mahsulotlari indeksining o'rtacha qiymati 224,2 punktni tashkil etdi, bu o'tgan oy darajasidan 4,5 punkt (2,1%) yuqori. Shunday qilib, indeksning qiymati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,4% ga ko'pdir, lekin 2014 yilning fevral oyidagi eng yuqori erishilgan ko'rsatkichdan 18,6% ga past. Sentabrdagi narx o'sishini Avstraliya, Yangi Zelandiya va Yevropa Ittifoqi tomonidan taklif cheklanishi hamda AQShdagi juda kichik hajmdagi taklifning oshishi bilan xohlash mumkin. Dunyoda, ayniqsa, Osiyoda, sariyog' va pishloq eng katta talabga ega bo'lgan sut mahsulotlari hisoblanadi. Shu bilan birga, yog'siz quruq sut va qaymog'i olinmagan quruq sutga talab kamayib bormoqda.

---

<sup>1</sup> [www.fao.org/templates/worldfood/reports\\_and\\_docs/food\\_prices\\_indices\\_data.csv](http://www.fao.org/templates/worldfood/reports_and_docs/food_prices_indices_data.csv). 05/10/2017



**3-rasm. 2017 yilda FAO oziq-ovqat narxlar indeksining dinamikasi.**

Sentabr oyida FAO ning go'sht narxlari indeksining o'rtacha qiymati avgust darajasiga nisbatan o'zgarmasdan, 173,2 punktni tashkil qildi. Bu ko'rsarkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,5 punktga yoki 5,8% o'sgan. Sentabr oyida qo'y go'shtining xalqaro narxlar o'sishi cho'chqa go'shti narxining pasayishi bilan barobar kuzatildi, mol va parrandaning narxi esa deyarli o'zgarmadi. Qo'y go'shtining narxi, asosan, Yaqin Sharq va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuqori import talabi ta'siri ostida o'sgan (2-jadval).

*2-jadval.*

#### Oziq-ovqatga FAO ning narx indeksleri<sup>1</sup>

	Oziq-ovqatga narx indeksi	Go'sht	Sut mahsulotlari	Don mahsulotlari	O'simlik yog'lari	Shakar
2000	<b>91.1</b>	96.5	95.3	85.8	69.5	116.1
2005	<b>118.0</b>	123.7	135.2	101.3	102.7	140.3
2006	<b>127.2</b>	120.9	129.7	118.9	112.7	209.6
2007	<b>161.4</b>	130.8	219.1	163.4	172.0	143.0

<sup>1</sup> Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumot asosida mualliflar tomonidan tuzilgan, [www.fao.org](http://www.fao.org)

	Oziq-ovqatga narx indeksi	Go'sht	Sut mahsulotlari	Don mahsulotlari	O'simlik yog'lari	Shakar
2008	201.4	160.7	223.1	232.1	227.1	181.6
2009	160.3	141.3	148.6	170.2	152.8	257.3
2010	188.0	158.3	206.6	179.2	197.4	302.0
2011	229.9	183.3	229.5	240.9	254.5	368.9
2012	213.3	182.0	193.6	236.1	223.9	305.7
2013	209.8	184.1	242.7	219.3	193.0	251.0
2014	201.8	198.3	224.1	191.9	181.1	241.2
2015	164.0	168.1	160.3	162.4	147.0	190.7
2016	161.5	156.2	153.8	146.9	163.8	256.0

**Aholi jon boshiga talab hajmi va tarkibining o'zgarishi.** Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, 2050 yilga borib, dunyo aholisi deyarli 10 milliard kishini tashkil qiladi va shunga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarishini joriy davrga nisbatan 60% ga oshirishni talab qiladi. Shuningdek, kelajakda aholining ko'payishi asosan rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi va u yerda turmush darajasining ortishi odamlarning ratsionida o'simlik oqsillaridan hayvonlarning oqsillariga o'tishi kuzatiladi, ya'ni go'sht va parrandaga bo'lgan talab 35% gacha oshishi mumkin.

Ovqatlanish ratsionidagi o'zgarishlar bo'lajak oziq-ovqat tizimi uchun juda muhimdir, chunki ba'zi bir oziq-ovqat mahsulotlarining (masalan, don asosida go'sht yetishtirish) bir kaloriyasini ishlab chiqarish uchun ko'proq resurslar talab qilinadi. Bundan tashqari, odamlarning ovqatlanishiga bir qator iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va diniy omillarning o'zaro bog'lanishi kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, turli tadqiqotlar 2050 yillarda go'sht iste'moli (kishi boshiga / yiliga) 32 kg dan 52 kg gacha ko'payishini taxmin qiladi. Yuqori daromadga ega bo'lgan mamlakatlarda iste'mol darajasi yuqori nuqtaga yaqinlashmoqda. Braziliya va Xitoy kabi yirik mamlakatlardagi go'sht iste'moli Buyuk Britaniya singari mamlakatlarda iste'moliga o'xshash darajada barqarorlashadimi yoki bu darajadan oshib, AQSh darajasiga chiqishi hozircha noma'lum. Biroq, shubhasiz, go'sht va, ayniqsa, don asosida etishtirilgan go'sht iste'molining sezilarli o'sishi yer, suv va boshqa resurslar uchun raqobatni kuchaytiradi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish barqarorligiga jiddiy ta'sir qiladi.

Kelajakdagi jon boshiga iste'molning asosiy noaniqliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Afrikadagi iste'mol darajasining oshishi;



- Bugungi kunda ovqatlanish ratsionlari yuqori daromadli mamlakatlarning odatiy ratsioniga yaqinlashish darajasi;
- ovqatlanish ratsiondagi mintaqaviy farqlar (ayniqsa, Hindistonda) kelajakda saqlanib qolishi;
- yalpi ichki mahsulotning o'sishi ko'proq aholining pasayib boruvchi o'sish sur'atlari yoki aholi jon boshiga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liqligi.

**Milliy va xalqaro darajadagi oziq-ovqat tizimining kelajakdagi boshqaruvi.** Boshqarishning ko'pgina jihatlari oziq-ovqat tizimining ishlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

- Bozorlarning globallashuvi oxirgi o'n yilliklarda oziq-ovqat tizimini shakllantirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi va kelajakda bu jarayon davom etishi oziq-ovqat xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

- Oziq-ovqat ishlab chiqarish bo'yicha Braziliya, Xitoy va Hindiston kabi yangi yetakchi mamlakatlarning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi. Masalan, Rossiya hozirgi kunda jahon eksport bozorlarida muhim rol o'ynaydi va ehtimol, u yerda hali ko'p hajmdagi foydalanilmaydigan qishloq xo'jalik yerlari tufayli uning roli yanada oshadi.

- Xususiy sektorda birlashish tendensiyasi hamda qishloq xo'jaligida, baliqchilik sohasida, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, ayrboshlash va sotishda cheklangan miqdordagi yirik transmilliy kompaniyalarning paydo bo'lishi. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarning yangi kompaniyalari xalqaro bozorlarga qo'shilishgani sababli, bu tendensiya teskari yo'nalishda o'zgarishining ehtimoli bor.

- Ishlab chiqarish subsidiyalari, savdo cheklavlari va bozorning faoliyatiga boshqa turdagi aralashishlar global oziq-ovqat tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu choralarning kelajakda qay darajada qo'llanilishi oziq-ovqat sohasi uchun juda muhimdir. Yuqori daromadli mamlakatlarning oziq-ovqat ishlab chiqarishdagi subsidiyalari dunyoda oziq-ovqat mahsulotlarini samarali ishlab chiqarishga to'sqinlik qiladi, himoyalangan mamlakatlardagi iste'mol narxlarini oshiradi va natijada global oziq-ovqat xavfsizligiga zarar yetkaziladi.

- Mamlakatlar hukumatlari birgalikda foydalaniladigan resurslar, savdo va qishloq xo'jalik bozorlarida narxlar o'zgaruvchanligi kabi kelajakdagi tahdidlarga qarshi qurashni qay tarzda olib borishi: birgalikda yoki alohida harakat qilishi bu sohadagi olib borilayotgan siyosatning samarasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

- Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun (masalan, Afrikada) oshib borayotgan yer maydonlarini nazorat qilish o'tgan davrda va kelajakdagi yer ijarasi va yer sotib olish to'g'risidagi shartnomalar ta'sirida olib boriladi.

**Iqlim o'zgarishi.** Hozirgi kunda yer yuzida tuproq, chuchuk suv, okean, o'rmon va biologik xilma-xillikning keskin yomonlashuvi kuzatilmoqda. Iqlim o'zgarishi insoniyat hayoti uchun zarur bo'lgan resurslarga yanada ko'proq salbiy ta'sir o'tkazib, qurg'oqchilik va suv toshqini kabi ofatlar bilan bog'liq xavflarni oshishga sabab bo'lmoqda.

Ushbu holat global oziq-ovqat tizimiga quyidagicha ta'sir qilishi mumkin:

Oziq-ovqatga oshib borayotgan talab ko'tarilayotgan global harorat va yog'inlar tarkibidagi o'zgarishlar vaziyatida qondiriladi kerak. Ushbu o'zgarayotgan iqlim sharoitlari ekinlar hosildorligiga va chorvadorchilikdagi ko'rsatkichlarga, suv mavjudligiga, baliqchilik va akvamahsulotlarini yetishtirishga hamda barcha hududlardagi ekologik tizim xizmatlariga ta'sir qiladi. Bashoratlarga ko'ra, keskin ob-havo hodisalarning kuchayishi va tez-tez bo'lib turishi oziq-ovqat ishlab chiqarish va narxlarining barqarorsizligini oshiradi. Dengiz va daryolar sathining o'zgarishi ham qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga bilvosita ta'sir qilishi mumkin, masalan, yuqori kenglikdagi yangi yerlarni o'zlashtirish imkoniyati yoki havodagi karbonat angidrid oshishi tufayli tuproq unumdorligini oshishi kuzatiladi. Shunday qilib, iqlim o'zgarishiga oziq-ovqat tizimining moslashuvi (masalan, yangi sharoitlarga moslashtirilgan o'simliklarning yangi navlarini va o'stirish usullarini yaratish) muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishlarining oqibatlarini yumshatishga qaratilgan siyosat oziq-ovqat tizimining rivojlanishiga juda katta ta'sir qiladi - sayyoramizdagi ko'payib borayotgan aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash vazifasi, issiqxona gazlari chiqindilarining keskin kamayishi bilan barobar amalga oshirilishi kerak.

**Asosiy resurslar uchun raqobat kurashi.** Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining dastlabki sharti yer resurslaridir. Hozirgi paytda dunyodagi qishloq xo'jalik yerlarning umumiy maydoni 4600 mln. gektarni tashkil etadi. Shimoliy Amerika va Avstraliya yirik yer resurslariga ega (tegishli kishi boshiga 23,6 va 15,5 ga to'g'ri keladi). Rivojlanayotgan mamlakatlarning birontasi Shimoliy Amerika va Avstraliyadagidek katta yer resurslariga ega emas. Faqat Lotin Amerikasida har bir kishi hisobiga qishloq xo'jalik yerlarining nisbatan yuqori ko'rsatkichlari qayd etilgan - 1,5 ga. Rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy hisobda har bir kishiga 0,67 gektar, jahon bo'yicha esa -0,82 ga qishloq xo'jalik yerlari to'g'ri keladi.

Yer resurslari tarkibida ishlov beriladigan yer maydonlari (sug'oriladigan, haydaladigan yerlar) hajmi muhim ahamiyatga ega. So'nggi o'n yillarda ishlov beriladigan yer maydonlari hajmi ko'rsatkichining jahon miqyosida aholi sonining o'sishiga nisbatan pastligi tufayli aholi

jon boshiga to'g'ri keladigan yer maydoni 0,23 gektargacha kamaydi. Ushbu ko'rsatkichning qisqarilishi Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Afrikaning Sahroyi Kabiridan janubda joylashgan mamlakatlar va rivojlangan mamlakatlarda yuz berdi. Bunday sharoitlarda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida ishlatiladigan yer resurslari uchun raqobat yanada kuchayadi. Bundan tashqari, yer maydonlari urbanizatsiya, cho'llanish, tuproq sho'rlanishi va eroziyasi hamda dengiz sathining ko'tarilishi tufayli ham yo'qoladi. Shuning uchun ham, ekologik sabablarga ko'ra kelgusida qishloq xo'jalik yerlarining kengayishini cheklash kerak. Xususan, tropik o'rmonlarning qishloq xo'jalik yerlariga qayta aylanishiga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki bu issiqxona gazlari chiqindilarini ko'paytiradi va biologik xilma-xillikni yo'qotishini tezlashtiradi.

Global energiya talabi: 2006 yildan 2030 yilgacha bo'lgan davrda bu ko'rsatkich 45 % ga oshishi kutilmoqda va bugungi darajasiga nisbatan 2050 yilga kelib ikki baravar ko'paydi. Energiya narxining ko'tarilishi va tobora barqaror borishi taxmin qilinmoqda. Bu esa oziq-ovqat tizimining ba'zi qismlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, 2008-2014 yillardagi neft narxining keskin oshib ketishi o'g'it narxisining besh barobar o'sishiga sabab bo'ldi.

Suvga bo'lgan global talabi: hozirgi paytda qishloq xo'jaligi butun dunyodagi daryo va suv omborlaridan «toza suv» ning 70% ini iste'mol qiladi. 2030 yilga borib, qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun suvga bo'lgan talab 30% dan oshishi mumkin, suvga bo'lgan jahon talabi esa 2000 yildan 2025 yilgacha bo'lgan davrda 35-60% ga oshishi mumkin. 2050 yilga borib sanoat va maishiy ehtiyojlarni qondirish hamda atrof-muhitni saqlash maqsadlarida suv oqimlarini bir darajada ushlab turish zarurligi sababli bu ko'rsatkich ikki barobar oshish mumkin.

Dunyodagi ba'zi qurg'oqchil hududlarida masalan, Panjob, Misr, Liviya va Avstraliyada, bir nechta yirik, qayta tiklanmaydigan qazilma suvlar tobora kamayib borib, o'rni to'ldirilmayapti. Ekspertlarning fikri bo'yicha, eksport qilinadigan oziq-ovqatga jahondagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan suvning 16% dan 26% gacha sarflanishi mumkin. Shuningdek, jahon miqyosida savdo orqali suvdan yanada samarali foydalanish uchun salmoqli salohiyat bor bo'lsa-da, biroq boy mamlakatlar kam daromadli mamlakatlarning suv zahiralarini ekspluatatsiya qilish xavfi mavjud.

Ushbu muammoning yana bir muhim jihatini qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda fermerlar tarmoqdagi mavjud resurslarning atigi 30% dan foydalanib, dunyo oziq-ovqat mahsulotlarining taxminan 70% ini ishlab chiqaradi. Shunga ko'ra, yirik agrosanoat kompaniyalar, resurslarning 70% ini ishlatib,

jahon oziq-ovqat mahsulotlarining 30% ini ta'minlaydi<sup>1</sup>. Shuning uchun ham kichik, ekologik toza fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirish kerak. Qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash tomonga balansni o'zgartirish barqaror rivojlanishni ta'minlash va global oziq-ovqat tizimini muvozanatlashtirishning muhim omilidir.

Yuqorida aniqlangan va tahlil qilingan omillardan va tahdidlardan tashqari iste'molchilar qadriyatlarini va ma'naviy dunyoqarashlarining o'zgarishini ham hisobga olish zarur. Bu jihatlar oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat tizimini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Misol sifatida, milliy manfaatlar va oziq-ovqat suvereniteti, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash (masalan, gen modifikatsiyasi, nanotexnologiya, uy hayvonlarini klonlash, sintetik biologiya), ekologik barqarorlikni va biologik xilma-xillikni saqlash, o'zaro manfaatli savdo va adolatlik masalalarni keltirish mumkin.

Shunday qilib, aniqlangan tendensiyalarning tahlili jahon oziq-ovqat bozori va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun bir qator tahdidlar mavjudligini ko'rsatib berdi:

1) kelajakda aholining ko'payishi asosan rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri kelsa-da, u yerda oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish imkoniyatlari har doim ham ichki ehtiyojlarni qondira olmaydi. Shunday qilib, bu mamlakatlar oziq-ovqat iste'moli bo'yicha tashqi omillarga qaramlikning yuqori darajasiga mahkumdur va xalqaro yordamisiz aholining biologik saqlanib qolishi mumkin emas;

2) 2007-2008 yillarda yuz bergan oziq-ovqat inqirozdan boshlab jahon oziq-ovqat bozorlarida narxlarning keskin o'zgaruvchanligi, spekulativ omilning asosiy oziq-ovqatlar narxlariga kuchli ta'siri kuzatilmoqda. Ushbu bozorlar barqarorligini ta'minlash, birinchidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradigan oziq-ovqat tizimlarini yaratish, ikkinchidan, oziq-ovqat yo'qotishlarini kamaytirish, uchinchidan, kichik va o'rta biznesga yordam berish maqsadida bozor axborotining oshkoraligini oshirish, to'rtinchidan, xalqaro savdo rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi muvozanatga erishish kabi masalalarga taqaladi;

3) iqlim ofatlarining tez-tez va kuchli bo'lib turishi, hosildorlikning past darajasi va tabiiy resurslarning yetishmasligi – ushbu omillarning birikmasi oziq-ovqat barqarorsizligi oshishiga va millionlab odamlarni kun kechirish uchun zarur bo'lgan mablag'lardan ajralishiga olib kelishi mumkin. Bu vaziyatda iqlim o'zgarishiga oziq-ovqat tizimini moslashtirish,

---

<sup>1</sup> ETC Group. 2009. Who will feed us? Questions for the food and climate crises. Communiqué Issue No. 102. Available at [http://www.etcgroup.org/sites/www.etcgroup.org/files/ETC\\_Who\\_Will\\_Feed\\_Us.pdf](http://www.etcgroup.org/sites/www.etcgroup.org/files/ETC_Who_Will_Feed_Us.pdf), accessed March 25, 2015.

dehqonchilikni ekologik usullar va texnologiyalar orqali olib borish hamda ushbu sohada innovatsiyalarni davlat tomonidan rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, hozirgi bosqich jahon hamjamiyatining oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilish yondashuvlarini o'zgartirish nuqtai nazaridan keskin burilish payti deb hisoblanmoqda. Strategik ustuvor yo'nalishlarga qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilikning samaradorligini va barqarorligini oshirish uchun xalqaro texnologik almashinuvni faollashtirish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqatning samarali tizimlariga o'tish; agrobiznes va ijtimoiy munosabatlarda gender tengligiga erishish, hamkorlik va savdo sohasidagi tartib va qoidalarni takomillashtirish; tabiiy ofatlar va texnogen halokatlar oqibatlarining oziq-ovqat bilan ta'minlashga xavfini kamaytirish kiradi.

## Adabiyotlar

---

1. «Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2017-yil 10-oktyabr.
2. 2017–2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Президенти 49/47сонли фармони, 7 февраль 2017 йил.
3. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи, 15 Декабрь 2016.
4. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2017. Повышение устойчивости к внешним воздействиям в целях обеспечения мира и продовольственной безопасности. Рим, ФАО, 2017 г.
5. Diaz-Bonilla. 2016. «The fractured conversation about trade and food security». 2015–2016. Rome, FAO.p 16.
6. ETC Group. 2009. Who will feed us? Questions for the food and climate crises. Communiqué Issue No. 102. Available at [http://www.etcgroup.org/sites/www.etcgroup.org/files/ETC\\_Who\\_Will\\_Feed\\_Us.pdf](http://www.etcgroup.org/sites/www.etcgroup.org/files/ETC_Who_Will_Feed_Us.pdf), accessed March 25, 2015.
7. FAO. 2015. Jahonda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanmagani 2014. Rim (FAO). 2015. The State of Food Insecurity in the World 2014. Rome).
8. IFPRI International Food Policy Research Institut, Mark W. Rosegrant, Michael S. Paisner, Siet Meijer, Julie Witcover, 2020 Global Food Outlook: Trends, Alternatives, and Choices, August 2015.
9. N. Alexandratos and J. Bruinsma. 2012. World agriculture towards 2030/2050: the 2012 revision. ESA WorkingPaper No.12–03. Rome, FAO. 16. FAO. 2009.